



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021
maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **S.T.Turg'unov**
Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash
- 9 **A.G'.Turg'unboyeva**
O'smirlik davrida xarakter aktsentuatsiyasi va xarakterning shakllanishi
- 13 **M.A.Maxsudova**
Turli yosh davrlarida muloqotning rivojlanishi
- 17 **Z.B.Kurbanova**
Bolalar ijtimoiylashuvini tashxis qilish uzluksiz ta'lim samaradorligi omili sifatida
- 21 **Yo.T.Djumanazarov**
Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning ayrim psixologik aspektlari
- 25 **S.Yu.Akbarov**
Kattalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish – yangi davr talabi sifatida
- 28 **A.A.Xusanov**
Bo'lgusi o'qituvchi-logopedlarni inklyuziv ta'lim muhiti sharoitida pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etish pedagogik muammo sifatida
- 32 **D.D.Oribhojeva**
Maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlari
- 36 **M.B.Badritdinova**
O'smirlarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari
- 39 **Z.O.Rahmatullayeva**
Bolalarda emosional intellektni shakllantirishning samarali omillari
- 42 **D.H.Ergasheva**
O'quv-bilish faoliyati muhitida bola mustaqilligining psixologik xususiyatlari
- 46 **D.H.Ergasheva**
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari
- 50 **N.O.G'aniyeva**
O'smirlik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi
- 54 **N.A.Vaxobova**
Oilada bolani maktab ta'limiga «shaxs» sifatida tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari
- 58 **I.P.Маусупова**
Особенности типов темперамента и их влияние на профессиональное самоопределение личности
- 64 **Sh.J.To'ychiyeva**
Psixologik mahoratli o'qituvchi – davr talabi
- 66 **M.Abdullayeva, N.Abdullayeva**
Oiladagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi
- 70 **M.Abdullayeva, D.Abdullayev**
O'smirlarni sport musobaqalariga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari
- 74 **Z.B.Kurbanova, M.N.Rustamova**
O'quvchilar kreativ qobiliyatini o'rganishning diagnostik vositalari
- 78 **Sh.B.Tursunova**
O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari
- 81 **Sh.B.Tursunova**
O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasi rivojlantirishida kreativ muloqot omillari
- 85 **A.A.Soliyev, M.Y.Mirvaliyeva**
O'smirlar sotsial statusini shakllantirishiga ta'sir etuvchi omillar
- 89 **G.Tulyaganova**
Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik xususiyatlari
- 93 **O.R.Nabiyeva**
Reproduktiv yoshdagi ayollar ruhiyatida kuzatiladigan o'zgarishlar
- 98 **M.N.Rustamova**
Pedagogik faoliyat samaradorligining psixologik omillari
- 101 **G.Sh.Tursunova**
Egotsentrizm shaxs xususiyati sifatida
- 104 **A.N.Qurbonboyev**
O'zini o'zi faollashtirish psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida
- 108 **D.B.Toshpo'latova, N.Maxmudova**
Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari



TURLI YOSH DAVRLARIDA MULOQOTNINIG RIVOJLANISHI

M.A. MAXSUDOVA,

NamDU Psixologiya kafedrası dotsenti

Ushbu maqolada muloqot jarayonining turli yosh davrlarida shakllanish va rivojlanish xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, muloqotni rivojlantirish bo'yicha psixologik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, muomala, munosabat, kommunikativ, interaktiv, perseptiv idrok.

V данной статье представлена информация об особенностях становления и развития коммуникативного процесса в разном возрасте. Есть также психологические советы по развитию общения.

Ключевые слова: коммуникация, взаимодействие, отношение, коммуникативное, интерактивное, перцептивное восприятие

This article provides information on the features of the formation and development of the communicative process at different ages. There are also psychological tips for developing communication.

Key words: communication, interaction, attitude, communicative, interactive, perceptual perception

Tajribali psixolog A.A. Bodalyev shaxs o'yinda, o'qishda, muloqotda, ya'ni faoiyatning turli sohalarida o'zining o'zini bilishi zarurligini uqtiradi. U o'zining «Shaxs va jamiyat» kitobida bu masalaga katta e'tibor berib, bu muammolar kam o'rganilganligini ta'kidlaydi. A. A. Bodalyevning fikricha, «insonni muloqot orqali tarbiyalashda bu unga qanday ta'sir qilishini avvaldan o'ylash zarur». (1.17-b.)

Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo - ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir - birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Oilada bola tug'ilishi bilan oila a'zolari u bilan muloqotga kirishishga harakat qiladilar. Lekin chaqaloq muloqotga darhol tayyor bo'lmasdan, u uxlaydi, yig'laydi va emadi. Chaqaloq o'zining hayotini shartsiz refleks, ya'ni qichqiriq bilan boshlaydi. Birinchi qichqiriq nutqning birinchi belgisidir. Ayrim olimlar birinchi qichqiriqni salbiy emotsiya deb ataydilar. Haqiqatdan ham chaqaloq o'zining qichqirig'i bilan uyquga, ovqatga, issiqlikka bo'lgan ehtiyojini bildiradi.



kelib chiqadi. O'yindan qoniqmagani bola "men o'ynamayman, sen bilan," deb noroziligini bildiradi. O'yin vaziyati bolalarda nutq munosabatlarini rivojlantiradi. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z boyliklari o'yin faoliyati orqali ortib boradi. Mashg'ulotlar orqali bolalarda nutq rivojlanib boradi. Chunki mashg'ulotlarda bolalar she'r yodlaydilar, ertaklar eshitadilar.

O'rta maktabgacha yoshdagi bolalar esa ajrata boshlaydilar. Kattalar bolaga o'g'il bola qanday bo'lishi kerakligi, qiz bola qanday bo'lishi kerakligi haqida tushuntiradilar. Masalan, o'g'il bola yig'lasa "yig'lama, sen erkak bo'lishing kerak", "qiz bolamisan?" deb, qizlarga esa "daraxtga tirmashma, sen qiz bolasan" kabi iboralar bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari bolalar katta erkak va ayollar xulq-atvorlariga qarab ham o'zlarini qanday tutishni o'rganadilar. O'yin faoliyatlarida erkak va ayollarga xos xususiyatlarni namoyon qiladilar. (2.19-bet)

Maktabda bolalarda eng avvalo faol ishlatiladigan so'zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o'qish va yozishni o'zlashtirish o'quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlarni bir-biriga qo'shish orqali so'z tuzish malakasini egallab olgach, ba'zida matn mazmunini noto'g'ri tushunadilar. Unga o'quvchilarning so'z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchi oldida bolalarda lug'at boyligini oshirish va ularni o'qigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o'rgatish vazifasi turadi. Yozuv darslarida bola harf va so'zlarni yozishda katta qiyinchilikka duch keladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida quyidagi psixologik holatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

1. Turli yosh davrlarida muloqotni shakllantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim.
2. Muloqotni nutq bilan bog'liq rivojlanishiga ko'proq e'tibor berish lozim.
3. Muloqotni rivojlantirish jarayonida bolalarning sog'ligi, psixologik xususiyalar normal rivojlanganligi ham inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.
4. Muloqotni shakllanishida o'yin faoliyatining roli katta ekanligini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. A. Bodalyev. Shaxs va muloqot. M. 17-b.
2. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. (o'quv qo'llanma). T. Turon-iqbol nashr. 2006.-116 bet.